

## YANGI O'ZBEKISTONDA SIYOSIY TAFAKKUR TRANSFORMATSIYASI

Saifnazarov I. –  
TDIU professori, f.f.d.

Siyosiy tafakkur davlatning barqaror va izchil rivojlanishida, fuqarolik jamiyati shakllanishi hamda ijodiy tashabbuslarni rag'batlantirishda alohida mavqega ega. Davlat va jamiyat hayotidagi barcha islohotlar, ularning samaradorligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, milliy manfaat va taraqqiyot ustuvorligining asosiy g'oyasi zamirida aynan siyosiy tafakkur yotadi. O'zbekiston tarixidagi har bir yangi bosqichda bu tafakkur o'zining yangi sifat jihatlariga ega bo'lib, milliy manfaatlarni mudom ustuvor qo'ygan holda taraqqiyot strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yillar davomida mamlakatda demokratik qadriyatlar asoslari barpo etildi, inson manfaatlari har qanday siyosiy kun tartibining bosh mezon sifatida mustahkamlandi. Bu jarayonda siyosiy tafakkurning transformatsiyasi nafaqat siyosiy rahbarlar, balki butun xalq tafakkuri, mamlakat fuqarolari ongini yuksalishida katta ahamiyat kasb etdi. Yangi O'zbekiston mafkurasi, zamonaviy g'oyalar, ochiqlik siyosati va o'zgarishlarga tayyorlik bugungi jamiyatda kuchli motivatsion manbaga aylanib, siyosiy tafakkur o'zgarishlarining asosi bo'lib turibdi.

Mavzuning tadqiqot muammosi eng avvalo, O'zbekistonda kechayotgan siyosiy tafakkur transformatsiyasining asosiy motivlari, tashqi va ichki omillari, jamoaviy va shaxsiy tafakkurda shakllanayotgan yangi qadriyatlarni chuqur o'rganishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston mustaqillik sari ilk qadamlarini tashlagan paytdan boshlab siyosiy tafakkur va mafkura taraqqiyoti o'zining murakkab yo'nalishlaridan o'tdi. Mustaqillikning dastlabki bosqichlarida jamiyatda asosan an'anaviy, ba'zan esa ko'hna qadamlar o'z kuchini saqlab qolgan edi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi g'oya va qarashlar tafovuti tobora o'sardi. Biroq taraqqiyot sari yuksalish uchun zamonaviy tafakkurga ehtiyoj ortib bordi. Chunki yangi davr uchun yangicha siyosiy dunyoqarash, taraqqiyotga ochiqlik, tashabbus va yangiliklarga qiziquvchanlik zarur edi [1, 21].

Yangi O'zbekistonda siyosiy tafakkur transformatsiyasining dolzarbligi zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo'lish, xalqaro maydonda yangi bosqichga chiqish va milliy taraqqiyot strategiyasini uyg'unlashtirish zaruriyatidan kelib chiqmoqda. XXI asr zamonida har bir davlatning jahon siyosiy maydonida o'z mavqeini aniqlash jarayonida eng muhim vosita bu – xalqda zamonaviy siyosiy tafakkur, ochiqlik va intellektual salohiyat shakllanishidir. Global jarayonlar faqatgina iqtisodiy raqobatdan, texnologik yangiliklardan yoki harbiy qudratdan iborat emas, balki inson resursining tafakkur taraqqiyoti va siyosiy bilim va madaniyatga asoslangan ongli harakati bilan namoyon bo'ladi [2, 556]

Bugun O'zbekiston hayotida joriy qilinayotgan keng ko'lamlı islohotlar ham aynan siyosiy tafakkur transformatsiyasi asosida kechmoqda. Davlat boshqaruvi organlarini samarali ishlashini, jamiyat hamda fuqarolar manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlashda siyosiy tafakkur o'zining eng ustuvor fazilatlarini ko'rsatmoqda. Hukumat faoliyatida jamiyat fikri, xalq istak va ehtiyojlari, fuqarolik jamiyati vakillarining pozitsiyasi doimo inobatga olinadigan bosqichni boshdan kechirmoqdamiz. Ochiqlik, oshkoralik, korrupsiyaga qarshi kurash, qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquqlari, ijtimoiy hamkorlik va kapital salohiyati ta'minlanmoqda. Erishilgan natijalarni o'rganar ekanmiz, O'zbekiston zamonaviy taraqqiyot, demokratik qadriyatlar, zamonaviy boshqaruv va ochiqlik bilan barobar ilg'or mafkura asosini yaratishga erishdi. Bu yillar davomida siyosiy tafakkur transformatsiyasi zamonaviy va tolerant shaxs, fikri erkin va zamonga mos jamiyat, o'zbek xalqining yangi xarakterini yaratishda muhim motivatsiya vazifasini bajarmoqda. Erkin va ochiq jamiyat shakllanmoqda. Endi har bir fuqaroda o'z taqdiriga, jamiyat va davlat hayotiga bevosita ta'sir ko'rsata olish, faol ishtirok etish, ijtimoiy jarayonlarda o'z o'rnini topish istagi kuchaymoqda. Siyosiy tafakkurning zamonaviy ko'nikmalari orqali O'zbekiston jahonda tan olinayotgan zamonaviy davlatga aylanmoqda.

O'zbekiston jamiyatida siyosiy tafakkur taraqqiyotining birinchi bosqichi mustaqillik yillarida shakllangan edi. Bu bosqichda ko'hna mafkura va an'analar taraqqiyotga yo'l bermasligi ayon bo'ldi, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari himoyasi, fuqarolikka asoslangan jamiyat

qurish eng muhim strategiyaga aylantirildi. Siyosiy tafakkurda asosiy o'zgarishlar – davlat va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, ochiqlik va oshkoralik, qonun ustuvorligi, adolatli siyosat, xalq talabi va ehtiyojlariga e'tibor berishga qaratildi. Yangi tafakkurda shaxs manfaati davlat manfaatidan ajratilmaydi, ijtimoiy hamkorlik va ishonch, ijtimoiy birdamlik va faollik, taraqqiyotga doimiy harakat uzluksiz tamoyilga aylandi. Siyosiy tafakkurda tub o'zgarishlar nafaqat davlat rahbariyatining g'oyasi, balki butun xalq tafakkuri va ehsoni doirasida amalga oshmoqda. Jamiyat mafkurasida ilg'or g'oyalar, serg'ayrat va yangilikka chanqoqlik, demokratik qadriyatlarga sodiqlik kabi hususiyatlar paydo bo'ldi. O'zbekiston fuqarolari o'z hayotiga mas'uliyat, jamiyat taraqqiyotiga ishtirokchilik va davlat boshqaruvida faollik ko'rsatishga tayyor bo'ldi. Bugungi ochiq siyosiy maydon, xalqni eshituvchi davlat, parlament va mahalla faoliyati, yuqori darajali ijtimoiy institutlar bu tafakkur natijasidir. Siyosiy jarayonlarda fuqarolik jamiyati vakillari, yoshlar, xotin-qizlar, ilg'or mutaxassislar, turli axborot platformalari mustahkam o'rin topdi [3, 314].

Yangi O'zbekiston sharoitida siyosiy tafakkur transformatsiyasi natijasida parlament va sotsial hamkorlik mustahkamlanib, jamiyat boshqaruvida e'tiroz madaniyati, ochiqlik, ijtimoiy adolat, erkin fikr almashuvi naqadar o'sdi. Siyosiy jarayonlarda aholining faol ishtiroki kuchayib, ham davlat, ham jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi g'oyaviy hamkorlik vujudga keldi. O'zbekiston siyosiy tafakkurida xalq, jamiyat va davlat o'zaro ixtiyoriy hamkorlikda ezgu maqsadlarga intilmoqda. Transformatsiya jarayonlari zamonaviy boshqaruv imkoniyatlarini ochib, hukumat manfaatlarini muvofiqlashtirishda ana shu tafakkur asosiy omil bo'lib chiqmoqda [4, 258].

Siyosiy tafakkurning rivojlanishida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, yoshlarni zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish, milliy tafakkur va ochiqlik qadriyatlarini birlashtirish asosiy vazifalardan biri bo'ldi. Bu jarayon jamiyatning har bir qatlamida, yoshlar va mutaxassislar ongida chuqur ildiz otmoqda. Yangi siyosiy tafakkur O'zbekistonda haqiqiy taraqqiyot, demokratiya va adolat sari harakatni birinchilardan bo'lib ta'minlab berdi. Shuningdek, mamlakatda zamonaviy islohotlarning tizimli va izchil jihatdan olib borilishi, davlat va xalq manfaatlarini uyqashligini mustahkamlash, ijtimoiy hamkorlik va ochiqlik, davlat va fuqarolik jamiyati instituti o'rtasida doimiy muloqot boshlandi. Siyosiy tafakkur transformatsiyasi davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, yoshlar siyosati, gender barobarligi, axborot siyosati sohasi va xalqaro aloqalarning barcha jabhalarida yaqqol ko'zga tashlandi. O'zbekiston zamonaviy taraqqiyot, milliy o'ziga xoslik va ochiqlik asosida mustahkam demokratik qadriyatlarni joriy qilmoqda. Bugungi O'zbekistonda siyosiy tafakkur transformatsiyasi natijasi o'laroq jamiyatda muhim ijtimoiy institutlar faoliyati kengaydi, qonun ustuvorligi va adolat, erkin fikr almashinuvi, fuqarolik mas'uliyati va manfaatlarini ilgari surildi. Siyosiy tafakkur xalq ehtiyojiga, adolat va tenglik g'oyasiga, taraqqiyot va ochiqlikga tayangan davlat g'oyaviy siyosatiga aylanib boryapti. Jamiyat yangilanishining asosiy omili ham ana shu tafakkur taraqqiyotidir [5, 430].

Yangi O'zbekistonda siyosiy tafakkur transformatsiyasi mamlakat taraqqiyotining eng muhim jihatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, sobiq tuzumdan qolgan eski siyosiy qarashlar, qat'iy qoidalar va meniga bog'liq bo'lgan fikriy cheklovlarni bosqichma-bosqich yengib o'tish, jamiyatni erkin va ochiq fikrlash sari yo'naltirish jarayoni boshlandi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati kuchayib, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot yangi bosqichga ko'tarildi. Aholining turli qatlamlari, xususan yoshlarning ijtimoiy faolligi, siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ortib borayotgani ham transformatsiyaning asosiy ko'rsatkichlaridandir. So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari kengaygani natijasida ochiqlik, erkin fikr, fikrlar xilma-xilligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda fikrlash doirasi kengayib, har bir fuqaro o'zining siyosiy nuqtai nazarini erkin ifoda eta boshladi. Xususan, prezident va hukumat tashabbusi bilan jamiyatda ochiq muloqot madaniyati, davlat idoralarining samimiyati, fuqarolarga ochiqlik siyosiy tafakkurning tubdan yangilanishiga, demokratiya tamoyillarining keng joriy qilinishiga turtki bo'ldi. Bu tizimda yosh avlodning ma'naviyati, huquqiy madaniyati va zamon bilan hamnafas bo'lishi uchun barcha zaminlar yaratilmoqda. Yoshlar jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida o'z nuqtai nazarini bildirish, turli tashabbus va loyiha hamda siyosiy markazlarda ishtirok

etish imkoniga ega bo'lishmoqda. Yana bir e'tiborga molik jihat shuki, siyosiy tafakkur transformatsiyasi davlat idoralari va mansabdorlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ular jamiyat murojaatlari, tashabbus va takliflarini ochiq-oydin eshitib, ularni xalq bilan hamkorlikda hal qilishga intilishmoqda. Davlat siyosatida ochiqlik, soddalik va samimiylik tamoyillarining ustuvor bo'lishi kelajakda xalq ishonchini mustahkamlash, taraqqiyotga intilish va adolatli boshqaruv tizimini qaror toptirishga yordam bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda siyosiy tafakkur transformatsiyasi zamonaviy taraqqiyotning ishonchli kafolatidir. Bu jarayon chinakamiga ilg'or fikrli va har tomonlama barkamol fuqaroni tarbiyalash, ochiqlik, erkinlik, adolat, huquqiy madaniyat va inson qadriyatlarini mustahkam rivojlantirish, davlat va jamiyat hamkorligini ta'minlash, taraqqiy etgan demokratiya tamoyillarini barpo etish uchun zamin yaratmoqda. Har bir islohot va harakat jarayonida siyosiy tafakkur transformatsiyasi yetakchi omil bo'lib, mustaqil O'zbekiston hayotidagi muhim va muqaddas g'oya tarzida shakllanmoqda. Shu tariqa halqimizning taraqqiyot sari intilishi, zamonaviy fikrlashga o'tishi va yangi avlod siyosiy tafakkurini yuksaltirishi O'zbekistonni kelajakda ham taraqqiy etgan, mustahkam poydevorga ega davlatga aylanishini ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Anvarov A. Yoshlar siyosiy madaniyatini yuksaltirishning muhim jihatlari // Молодые ученые. – 2025. – Т. 3. – №. 14. – С. 21-24.
2. Berdikulov C. Yoshlar estetik dunyoqarash madaniyatini yuksaltirishda mas'uliyat-ma'naviy kollaboratsiyani ahamiyati // Journal of universal science research. – 2025. – Т. 3. – №. 6 (SPECIAL ISSUE). – С. 556-562.
3. Ergashbayev Sh. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.
4. Jamoliddin Abduraximovich M. Yoshlar ma'naviy madaniyatining shakllanishida oilani roli // International Conference on Economics, Finance, Banking and Management. – 2024. – С. 258-266.
5. Kamolov D. Yoshlar tarbiyasiga huquqiy, axloqiy va siyosiy madaniyatning uzviy aloqadorligi // International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 430-433.
6. Murotovich M. F. et al. Zamonaviy yoshlar qadriyatlari va jamiyat boshqaruvi // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – С. 121-127.
7. Tadjiyeva S. U., Husenova M. F. Xorijiy mamlakatlarda yoshlar turizmini rivojlantirish ilg'or tajribasi // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion yondashuv.
8. Yusupov A. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda madaniy va mafkuraviy omillarni o'rganishning nazariy asoslari // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – Т. 11. – С. 81-83.
9. Yusupov A. O'zbekistonda yoshlar ijtimoiylashuvida milliy-siyosiy mentalitetning o'rni // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – Т. 13. – С. 223-224.
10. Муминов А.Г, Г.Барноева Ўзбекистон Президенти – глобал тараккиётнинг янги моделини яратётган бош меъмор “Макон ва замон” журнали, 2026 йил, №1, 25-30-бетлар

#### REZYUME:

Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'liga chiqqanidan boshlab mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy ong va tafakkurda, inshoot tizimida hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda tubdan yangilanish boshlanganini e'tirof etish zarur. Mustaqillik yillarida ortga qaytmas tashabbuslar, ilg'or islohotlar va jahon tajribasini integratsiyalashga yo'naltirilgan strategik qarorlar bu jarayonning asosiy omili bo'lib xizmat qilmokda. Shunday og'ir va mas'uliyatli davrda siyosiy tafakkur, unga xos qadriyatlar, mafkura va ijtimoiy madaniyatda o'sishga erishish O'zbekiston taraqqiyotining tub mohiyatini tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** yangi O'zbekiston, siyosiy tafakkur, transformatsiya, jamiyat, zamonaviy islohotlar, mustaqillik, demokratiya, taraqqiyot, huquqiy madaniyat, adolat, ochiqlik, fuqarolik jamiyati, parlament, islohotlar.

#### РЕЗЮМЕ:

С момента вступления Нового Узбекистана на путь развития в социально-политической жизни страны произошли глубокие изменения. Необходимо признать, что началось радикальное обновление общественного сознания и мышления, системы структур и взаимоотношений государства и общества.

В годы независимости основными факторами этого процесса стали необратимые инициативы, прогрессивные реформы и стратегические решения, направленные на интеграцию мирового опыта. В такой сложный и ответственный период достижение роста политического мышления, его неотъемлемых ценностей, идеологии и социальной культуры составляет фундаментальную сущность развития Узбекистана.

**Ключевые слова:** новый Узбекистан, политическое мышление, трансформация, общество, современные реформы, независимость, демократия, развитие, правовая культура, правосудие, открытость, гражданское общество, парламент, реформы.

#### RESUME:

Since the new Uzbekistan embarked on the path of development, profound changes have occurred in the socio-political life of the country. It is necessary to recognize that a radical renewal has begun in social consciousness and thinking, in the system of structures, and in the relationship between the state and society. During the years of independence, irreversible initiatives, progressive reforms, and strategic decisions aimed at integrating world experience serve as the main factors in this process. In such a difficult and responsible period, achieving growth in political thinking, its inherent values, ideology, and social culture constitute the fundamental essence of Uzbekistan's development.

**Keywords:** new Uzbekistan, political thinking, transformation, society, modern reforms, independence, democracy, development, legal culture, justice, openness, civil society, parliament, reforms.